

Nasr ibn Ahmad



## Nasr I ibn Asad Somoniy

(taxm. 848-893)

(865-892)

O'zbek davlatchiligidagi **somoniylar** sulolasining boshlig'i, Samarqand hokimi (865-892). Somoniylar davlati hukmdori. Nasr ibn Ahmad Norin daryosi bo'yidagi Haylam qishlog'ida tug'ilgan. Otasi **Ahmad** vafotidan (865 yil) keyin u Samarqandni markazga aylantiradi. Buxoro vohasi, Naxshab (Qashqadaryo), Chag'onrud (Surxondaryo) vodiylaridan tashqari Movarounnahrning barcha viloyatlarini birlashtirish va uni Xurosondan ajratib olish choralarini ko'radi. Tohiriylarning davlatining barham topishi bilan vaziyat tubdan o'zgarib, istiqlol uchun qulay sharoit paydo bo'ladi. O'z holiga tashlab qo'yilgan Buxoro ahli hatto safforiylarga tobe bo'lishni xohlamaydi. Shahar zodagonlari somoniylarga murojaat qilib, Samarqandga Nasr huzuriga elchilar yuboradilar, undan Buxoroni o'z qo'l ostiga olishni va somoniylar xonadonidan bir kishini Buxoroga hokim qilib yuborishni so'raydilar. Nasr bu taklifni mamnuniyat bilan qabul qilib, ukasi **Ismoilni** (874) Buxoroga noib qilib yuboradi.

Shundan so'ng Nasr ibn Ahmad o'zini butun Movarounnahr boshlig'i deb bilgan (875) va kumush dirhamlar zarb qildirgan (ilgari dirham tangalar zarb qilishga faqat tohiriylarning huquqi bor edi). Ismoil bo'lsa, akasiga itoat etmay qo'ygan va ular o'rtasida 888 yil to'qnashuv bo'lib Nasr ibn Ahmad qo'shinlari butunlay tor-mor keltirilgan.

2023-10-29 20:19:21